

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева</b> Теоретические основы лексической системы языка в рамках синтагматики и парадигматики.....	203
<b>Z.V.Alimova</b> Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida “Xud” so’zi va uning morfologik belgilari xususida .....	208
<b>M.M.Asranova</b> O‘zbek tilida siyosiy diskurs individualligini ta’minlovchi leksik va morfologik vositalar .....	213
<b>O.M.Khudoyberdieva</b> The significance of using idioms and collocations in english and uzbek dance terminology .....	218
<b>G.S.Xolmurotova</b> Tilshunoslikda terminologik tizimning aksiologik jihatlari.....	222
<b>N.H.Sayfullayev, A.A.Mirzayeva</b> Alisher Navoiyning “Nasoyim Ul-Muhabbat” asaridagi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tahlili .....	226
<b>N.A.Abdullayeva</b> Tozalikning kishi salomatligiga ta’siri haqidagi o‘zbek va ingliz xalq maqollarining semantik tahlili .....	229
<b>M.T.Qodirova</b> Biznes diskursini metonimik modellashtirish.....	233
<b>D.N.Satimova</b> Ingliz va o‘zbek tillarining ekzistensial va noekzistensial shakllari: substandart leksik birliklar .....	240
<b>V.A.Tangriyev</b> Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarining inglizcha va o‘zbekcha tarjimalaridagi paralingvistik vositalar .....	247
<b>V.A.Giyosova</b> Murojaat birliklarida aksiologik modallik ifodasi .....	254
<b>R.Kahramanova</b> The values of morphological indicators of quantitative words in dialects recorded on ancient monuments.....	260
<b>I.M.Ataboyev</b> Ta’na-dashnom konseptining madaniyatlararo farqlari: Ingliz va boshqa tillarda foydalanishni qiyosiy o‘rganish .....	264
<b>M.E.Qodirova</b> O‘zbek va ingliz tillarida san’atga oid terminlarning klassifikatsiyasi .....	270



UO'K: 811.161.1 ББК: 81.2 А: 13

**TOZALIKNING KISHI SALOMATLIGIGA TA'SIRI HAQIDAGI O'ZBEK VA INGLIZ XALQ  
MAQOLLARINING SEMANTIK TAHLILI****СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ  
О ВЛИЯНИИ ЧИСТОТЫ НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА****SEMANTIC ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH FOLK PROVERBS ABOUT THE  
EFFECT OF CLEANLINESS ON HUMAN HEALTH****Abdullayeva Nozima Anvarxonovna** 

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Tilshunoslikda paremiologiya alohida o'rganiladigan yo'nalish sifatida ajratilgan bo'lib, unda xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan maqol va matallar turli yo'nalishlarda tadqiq qilinadi. Maqolada esa inson salomatligiga aloqador bo'lgan tozalikka oid maqollar semantik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tilidagi tozalik-pokizalik va ularning qarama-qarshisi bo'lgan nopoklik haqidagi maqollarning o'z va ko'chma ma'nolari o'zaro solishtirib, o'rganib chiqiladi.

**Аннотация**

В лингвистике паремология выделяется как отдельная область исследований, в рамках которой пословицы и поговорки, относящиеся к устному народному творчеству, изучаются с разных сторон. В статье проводится семантический анализ пословиц о чистоте, связанных со здоровьем человека. Также будет проведено сравнительное изучение собственных и переносных значений узбекских и английских пословиц о чистоте-целомудрии и их противоположностях -нечистоте.

**Abstract**

In linguistics, paremiology stands out as a separate area of study. Proverbs and sayings related to folklore are studied from different sides. The article semantically analyzes proverbs about cleanliness related to human health. A comparative study of the proper and figurative meanings of Uzbek and English proverbs about purity-cleanliness and their opposites-impurity will also be conducted.

**Kalit so'zlar:** Maqol, tozalik, salomatlik, o'z ma'no, ko'chma ma'no, ichki poklik, jamiyat va ozodalik**Ключевые слова:** Пословица, чистота, здоровье, собственное значение, переносное значение, внутренняя чистота, общество и опрятность**Key words:** Proverb, cleanliness, health, real meaning, figurative meaning, inner cleanliness, society and cleanliness**KIRISH**

Xalq maqol va matallarida o'zi mansub bo'lgan xalqning urf-odati, ijtimoy-siyosiy holati, orzu-umidlari aks etadi. Bundan tashqari xalq maqol va matallari orqali o'sha xalqning kundalik hayot tarzi, tutumlari, dunyoqarashi haqida ham ma'lumot olish mumkin. Ayniqsa, o'zbek va ingliz xalq maqollarida inson salomatligi bilan bog'liq turli mavzudagi maqol va matallarni ko'plab uchratish mumkin. Bu kabi maqol va matallarning mavzu ko'lami keng bo'lib, ular orasida tozalik va ozodalikka oid o'nlab maqollar mavjudligi inson salomatligi xalq og'zaki ijodida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Maqolada tozalik-pokizalikka oid o'zbek va ingliz tilidagi maqollar o'zaro chog'ishtirilib, semantik tahlil qilinadi. Ushbu tahlil orqali har ikki xalqqa tegishli bo'lgan maqollarning ma'nolari va tozalikning ushbu jamiyat kishilari hayotidagi o'rni o'rganilib, tahlil qilinadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Tozalik va ozodalikka oid xalq maqollarini o'rganishda o'zbek va ingliz tilidagi maqollar to'plami, paremiologik lug'atlardan foydalanib mavzu tadqiq etildi. O'zbek xalq maqollarini tahlil qilishda X.Berdiyev, R.Rasulovning "O'zbek tilining paremiologik lug'ati" (T., O'qituvchi, 1984);

Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovning “Nega shunday deymiz” (T., G.G‘ulom, 1987) hamda “Hikmatnoma” - o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati (T., O‘zbeksovet ensiklopediyasi, 1990), shuningdek, ingliz tilidagi Uolfgang Mayder tahriri ostidagi “A dictionary of American proverbs” (New York, Oxford university press, 1992), Ronald Ridout va Klifford Uitting tahriridagi “The Macmillan Dictionary of English Proverbs Explained” maqollar izohli lug‘ati (Great Britain, 1995), Rosalind Fergussonning “The Penguin Dictionary of Proverbs” (England, 2000) maqollar to‘plamlaridan asosiy manba sifatida foydalanildi. Ushbu to‘plamlar maqollar izohlari va sinonimlari keltirib o‘tilgan lug‘at shaklidagi kitoblar bo‘lib, salomatlikka va ozodalikka oid maqollarni jamlashda ishlatildi.

Bulardan tashqari Vermont universiteti paremiolog olimi Uolfgang Maydarning *English medical proverbs* maqolasidan o‘zbek tilidagi maqollar bilan chog‘ishtirish uchun foydalanildi. Maqolada tibbiyotga oid ko‘plab maqollar izohlab beriladi. Olim sanitariyaga oid maqollar juda kamligi, faqatgina *Cleanliness next to godliness* maqolini o‘n oltinchi asrdan beri iste‘modaligini aytadi. Shuningdek, tozalikka oid maqollar asosan, yeguliklar mavzusida bo‘lib, (masalan: olma, shaftoli kabi mevalarni yuvmay yeyishlik turli infeksiyalar o‘chog‘i bo‘lishi mumkin) ularni nogigiyenik sharoitda iste‘mol qilish asosiy muammo paydo qiluvchi sabab bo‘lishini ta‘kidlaydi. [1]

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbek va ingliz xalq maqol va matallarida salomatlik hamda tozalik-pokizalikka oid bo‘lgan maqollarning ma‘no-mazmuni turlicha bo‘lib, ular chog‘ishtirish orqali misollar bilan ko‘rib chiqiladi. Har ikki tilda ham tozalik-pokizalikka oid maqol va matallar paremiologik xususiyatiga ko‘ra o‘z va ko‘chma ma‘nolarga ega hamda ular jamiyatdagi turli voqea-hodisalarni ifodalashda ishlatiladi.

Aksariyat o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan maqol va matallarda tozalik tushunchasi salomatlik va sog‘lom turmush tarzi bilan bog‘langan bo‘lib, inson salomatligida pokizalikning o‘rni yuqoriligini ko‘rsatadi, shuningdek, kishilarga ozodalik sog‘-salomat bo‘lish garovi ekanligini ta‘kidlaydi.

Ma‘lumki, maqollar o‘z va ko‘chma ma‘noga ega xalq og‘zaki ijodi namunasidir. Tozalikka oid maqollar ham xuddi shunday turli ma‘nolarda namoyon bo‘ladi. O‘z ma‘nosida qo‘llaniluvchi maqollar ya‘ni tozalikning salomatlikka ta‘sirini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettiruvchi maqollar quyidagilardir:

Tozalik to‘liq salomatlik garovi ekanligini anglatuvchi maqollar: *Pokliging – sog‘liging, Tozalik – sog‘lik garovi, Sog‘ yuray desang ozoda bo‘l*. Bu har uch maqolda ham toza-ozoda yurish salomat bo‘lishlikning asosiy shartidan biri sifatida ta‘kidlanmoqda.[2]

Bundan tashqari tozalikka, shaxsiy gigiyenaga rioya qilmaslik oqibatlaridan ogohlantiruvchi maqollar ham mavjud bo‘lib, ular e‘tiborsizlik turli kasalliklarga olib kelishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Masalan: *Qaramagan boshni bit yer* – bu maqol ko‘proq ijtimoiy vaziyat orqali kelib chiqishi mumkin bo‘lgan holatga nisbatan qo‘llaniladiki, jamiyatda ochlik, yetarli sanitariya mahsulotlarining bo‘lmasligi yosh bolalar va hattoki, katta yoshdagilarning ham sochlari va kiyimlarida kichik parazitlarning paydo bo‘lishi keyinchalik jiddiy kasalliklarga sabab bo‘lishini anglatadi.

Ma‘lumki, jamiyatlarda yaqin aloqadagi kishilarning o‘zaro qo‘l berib ko‘rishishlari keng tarqalgan udumga aylangan. Agar biron jiddiy sabab bilan, ya‘ni biron yuqumli kasallikka chalingan bo‘lsa, bunday vaziyatda shaxs qanday yo‘l tutish kerakligi *Qo‘ling terli bo‘lsa, qo‘l olishib ko‘rishma* maqolida ko‘rsatib beriladi. Ya‘ni shaxsiy gigiyenaga rioya qilish ayrim yuqumli kasalliklarni oldini olishi mumkinligini uqtiradi. *Toza uyda dard qolmas, Uyi tozaga gard yuqmas, gard yuqsa ham dard yuqmas* kabi maqollar kishi nafaqat o‘z tozaligi balki manzil-makoni ham toza bo‘lishligi zarurligi uni turli kasalliklardan holi etishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, ingliz tilida shaxsiy gigiyena va tozalikka oid maqollar o‘zbek tilidagi kabi ko‘rinish va xususiyatlarga ega bo‘lib, ma‘no jihatdan farqlanadi. Pokizalikka oid o‘z ma‘nosida qo‘llanuvchi ingliz maqollari quyidagilardir: Tozalik shunday muhimki, hatto kishi yurgan yo‘lini tozalab yurishi *Clean as you go* maqolida ta‘kidlanadi. Yoki tozalik moddiy holatga ham bog‘lanadi: *Cleanliness is the poor man’s luxury* - tozalik kambag‘al kishining dabdabasidir.[3]

Tozalik nafaqat bir kishining balki butun jamiyatning muammosi ekanligi *If each would sweep before his own door, we should have a clean city* – maqolida aytib o‘tiladi. Ya‘ni agar har bir kishi o‘z eshigini supurganda, biz ozoda shaharga ega bo‘lar edik, deb tarjima qilinadi. *For washing his hands, none sells his lands* - ya‘ni qo‘l yuvish uchun hech kim yerini sotmaydi yoki

## TILSHUNOSLIK

toza, pokiza bo'lish uchun sarflangan vaqt kishining turmush tarziga moddiy zarar yetkazmaydi. Bu maqol oddiy qo'l yuvishning qadri yoki muhimligini anglatmoqda. *Clean and whole makes poor clothes shine* – (eski kiyimni tozalik va butunlik yarqiratadi) maqoli kiyim eski bo'lsa-da, toza va yirtilmagan bo'lishligi uning qadrini belgilab beradi.[4] *Above all things, keep clean* – (barchasidan oldin tozalikni saqla) turmushdagi hamma ishdan oldin tozalikka rioya qilish eng muhimligi vazifaligi ta'kidlanmoqda. *One keep clean is worth ten make cleans* – (bitta toza saqlangan o'nta tozalanganga teng) maqolidan esa narsa-buyumning qadri uning toza saqlanganligida bo'lishi, sifatini yo'qotmasligi uchun tozalash emas toza saqlash muhimligini anglash mumkin.

O'zbek va ingliz tillaridagi tozalikka oid o'z ma'nosida qo'llanuvchi maqollar ma'nosiga ko'ra bir biridan farq qiladi. O'zbek tilida keltirilgan maqollarda tozalik ayni sog'lik garovi va ma'lum bir kasalliklarning oldini olishi aytilsa, ingliz tilida esa tozalikning qadri, o'lchovi hayotda qanchalik ahamiyatga ega ekanligi turli qiyoslashlar orqali ochib beriladi.

O'zbek millatiga xos xususiyatlardan biri har bir xonadondagi ayolning uy tutishdagi alohida o'rnidir. Ayol kishi uy ichidagi juda ko'p ishlarda mas'uliyatli hisoblanadi va bu tozalik, saranjom-sarishtalikni saqlashda ham muhimdir. *Ayolning sarishtasi- ro'zg'orning farishtasi* – maqolida uy-ro'zg'or tutish ayol kishiga bog'liq bo'lib, uning tozaligi "farishta" ga qiyoslanmoqda.

O'zbek tilida ayrim tozalik mavzusidagi, lekin ko'chma ma'no anglatuvchi maqollar ham mavjud. Tozalik nafaqat insonning tashqi dunyosi balki, ichki holatida ham katta ahamiyatga egaligini *Ko'ngil kiri yetti daryoda yuvsa ham ketmas, Dilida kiri borning – ichida siri bor* maqollari orqali anglash mumkin. Bu maqollar ichki pokizalikka ega bo'lmagan kishi aslo pokiza bo'la olmasligi va u sirli shaxsga aylanishi haqida xabar bermoqda.[5]

Ingliz xalqida ham o'zbeklardagi kabi shaxsning ichki pokizaligi muhim bo'lib, tashqi va ichki pokizalik qadimgi davrlarga oid bo'lgan maqollarda taqvodorlik, xudojo'ylik belgisi hisoblanib, unga oid quyidagi maqollarni keltirish mumkin: *Cleanliness is akin to godliness. Cleanliness is next to godliness. Cleanliness is godliness, so why go to church?* (tozalik taqvodorlikdir, shunday ekan nega cherkovga borish kerak?) Bu kabi maqollarda shaxsning har tomonlama pokiza bo'lishi uning Yaratganga bo'lgan chuqur hurmat-ehtiromining belgisi ekanligi anglashiladi.[6]

O'zbek tilida maqollar buyum-narsa va jonzotlar nomi bilan shaxslantirish orqali ham tozalik haqida ma'lumot beradi. *Kir yuvgandan supurgi ham qo'rqar* maqoli sarishta kishi barcha narsani birdek toza saqlashi ro'zg'ordagi supurgi misolida ochib berilmoqda. *It ham yotar joyini quyrug'i bilan supuradi* - o'zining yotar-turar joyini iflos, supuruqsiz holda saqlaydigan befahm, befarosat, madaniyatsiz odamlarga tanbeh berganlarida yoxud shunday odamlar ustidan istehzo bilan kulganlarida shu maqolni aytadilar.

Ingliz tilida tozalikka oid ko'chma ma'noga ega maqollar: *Clean around your own back door before you clean around someone else's* (birovning eshigi atrofini tozalashdan oldin o'zingnikini tozalab qo'y) ya'ni *Oldin o'zingga boq, keyin nog'ora qoq* maqoliga sinonim tarzida ishlatilishi mumkin. Bu maqol tozalik haqida emas balki birovlariga biron gap aytishdan avval o'z holiga nazar solish zarurligi haqidadir.

Ingliz tilida clean- toza, tozalamoq so'zi qatnashgan maqollar ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. *Don't clean your fish before you catch it* – (baliqni tutishdan oldin tozalama) maqoli qo'lda yo'q narsani oldindan hisoblamaslik kerakligini uqtiradi. Yana bir maqol *A new broom sweeps clean* (yangi supurgi yaxshi supuradi) ko'chma ma'noda bo'lib, o'z ma'nosidan uzoqlashadi ya'ni biror lavozimga yangi tayinlangan amaldor ba'zan hammayoqni o'zgartirib, yangilik kiritmoqchi bo'ladi. Lekin bu har doim ham kutilgan samarali natijani bermasligi mumkin. Bu maqollardan tashqari ingliz tilida *tozalash – clean* so'zi qatnashgan turli ma'nodagi maqollarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan: *A clean hand needs no washing* – toza qo'l yuvilishga muhtoj emas; *Dirty hands make clean money* – kir qo'llardan toza pul paydo bo'ladi, ya'ni halol daromadga mehnat bilan erishiladi; *Have not only clean hands, but clean minds* – faqat qo'llaringni emas, aqli-xushingni ham toza qil; *One clean sheet will not soil another* – bir toza varaq boshqasini iflos qilmaydi; *Saturday's cleaning will not last through Sunday, but Sunday's will last all week* – Shanba kundagi tozalash Yakshanbaga qadar yetmaydi lekin Yakshanbadagi bir hafatagacha davom etadi.

Berilgan maqollardagi *clean* so'zining qarama-qarshisi bo'lgan *dirt* so'zi ham ishlatiladiki, bu so'z qatnashgan ayrim maqollarning inson salomatligi bilan aloqasi mavjud emas va ko'chma ma'noda ekanligini ko'rish mumkin.

*Fling dirt enough and some will stick* – (bir qancha kirni/loyni irg'itsang qanchasidir yopishib qoladi) maqoli biron kishi haqida yolg'on gap gapirilsa, qanchadir qismiga odamlar ishonib qolishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda aytiladi.[7]

*Don't wash your dirt linen in public* yoki *Dirty linen should be washed at home* maqollari oilaviy muammolar jamoa oldida ayniqsa, uyatli holatda bo'lsa fosh qilinmasligi kerak deb nasihat qilmoqda.[8]

*Don't throw away your dirty water until you get clean-* (tozalanmaguningcha kir suvingni uloqtirma) yoki *Don't pour out the dirty water before you have clean* (toza suving bo'lmaguncha kir suvni to'kib yuborma) kabi maqollarda suv misol qilinishi sababi, suv tanqisligi bo'lgan mamlakatlarda suvni e'tibor bilan ishlatish zarur bo'ladi. Bu maqolda esa biron narsani o'rniga bosuvchi bo'lmay turib eskisini tashlab bo'lmasligi o'rgatilmoqda.

#### XULOSA

Tozalik – pokizalikning salomatlikka ta'siri bo'lgan o'zbek va ingliz tilidagi maqollarni ko'p sonli ekanligi ozodalikning har ikki xalq hayotida qadimdan beri muhim ahamiyatga egaligini bildiradi. Tozalik nafaqat salomatlik garovi sifatida balki kishilarning va jamiyatning obro'-e'tiborini belgilashda asosiy mezonlardan bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalqida tozalik ko'proq individual hodisa bo'lsa, inglizlarda jamiyatning ozoda bo'lishligi ustun qo'yiladi va bu salomatlikdan tashqari boshqa ishlarda muvaffaqiyatga erishish sabablaridan biri qilib ko'rsatiladi. Tozalik kishining nafaqat tashqi balki ichki pokizaligini ko'rsatishda har ikki xalqda jiddiy unsur sifatida qaraladi. Shuningdek, tozalikka oid maqollar har ikki xalqda o'z va ko'chma ma'nolarda salomatlikka oid bo'lmagan vaziyatlarda ham ishlatiladi.

Tozalik va pokizalik shaxsning sog'lom turmush kechirishida muhim o'rin egallaganligi va ular haqida maqollarning vujudga kelganligi hozirgi kunda kishilarni tozalikka o'rgatishda yaxshi vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Uolfgang Mayder. English medical proverbs. – USA. Modern philology N#32 -1934-35, 80b.
2. X.Berdiyev, R.Rasulov. O'zbek tilining paremiologik lug'ati.- Toshkent, 1984. 120b.
3. Uolfgang Mayder. A dictionary of American proverbs. - New York, 1992. 101b.
4. Rozalind Ferguson. The Penguin Dictionary of Proverbs. – England, 2000. 32b.
5. Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma - o'zbek maqollarining izohli lug'ati. - Toshkent, 1990. 125b.
6. The Macmillan dictionary of English proverbs explained. - Great Britain, 1995. 40b.
7. Uolfgang Mayder. A dictionary of American proverbs. - New York, 1992. 151b.
8. The Macmillan dictionary of English proverbs explained. Great Britain, 1995. 56b.